

XORAZM SHEVALARIDA OT YASALISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reyimboyeva Zulayho

*Urganch davlat universiteti Lingvistika
(o'zbek tili) yo'nalishi magistranti*

Ma'lumki, turkiy tillarda so'z yasashning eng mahsuldor usuli sifatida [so'z yasalish asosi + yasovchi vosita] modelida so'z yasalishi (affiksatsiya usuli) e'tirof etiladi. Xorazm shevalarida ot turkumiga mansub birliklarning yasalishida ham bu usul ustuvorlik qiladi. Ammo bu hudud o'zbek shevalarida otlarning [so'z yasalish asosi + yasovchi vosita] modeliga mos kelmaydigan yasalish usullari ham mavjud. Ushbu maqolamizda o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida otlarning [so'z yasalish asosi + yasovchi vosita] modelida yasalishi masalasini tekshiramiz.

Xorazm shevalarida barcha so'z turkumlaridan [so'z yasalish asosi + yasovchi vosita] modelida ot yasash imkoniyati mavjud.

Xorazm shevalarida so'z yasashning [so'z yasalish asosi + yasovchi affiks] modelida otga xos yangi yasalmalar ham tub, ham yasama so'zlardan hosil qilinadi. Masalan, *-liq/-lik* affiksi orqali sifat va ot xarakteridagi tub va yasama asoslardan o'rin-joy, narsa-predmet, belgi-xususiyat ma'nolarini bildiruvchi turli otlar yasaladi: *suyiqliq* (suyuq yoqilg'i turi), *ävmäsärlik* (lapashanglik), *djinäzäklik* (nimjonlik), *yuvashliq* (yuvvoshlik), *arzagöylik*, *qïssaxanliq*, *yig'naqbazliq* (majlisbozlik) kabilar.

Xorazm shevalarida *-chilïq/-chilik* affiksi orqali ham ko'plab otlar yasaladi: *djaychilïq* (erkinlik), *yoqchilïq* (yo'qchilik), *paraxatchilïq* (tinchlik), *toqchilïq* (to'qchilik), *qiyinchilïq* (qiyinchilik), *molchilïq* (mo'lchilik) kabilar. Bu so'zlarning aksariyati adabiy tilda ham mavjud bo'lib, hudud o'zbek shevalarida fonetik jihatdan farqlanadi.

Xorazm shevalarida asliy sifatlarga *-chilïq/-chilik* affiksi bilan yasalgan yasama otlar ham anchagina: *keñchilik*, *tirichilik* kabilar.

Keñchilik bilan *keñlik* so'zlarining ko'chma ma'nolarida o'xshashlik mavjud, ammo ularning ma'nolarini farqlamay, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emas. Shuningdek, *köplik* bilan *köpchilik*, *tirichilik* bilan *tirilik* so'zlarining ham ma'nolarini farqlash lozim. Quyida Xorazm shevalarida shaxs otlari yasalishi xususida kengroq fikr yuritamiz.

Xorazm shevalarida shaxs oti yasovchi affikslarning miqdori adabiy tildagiga nisbatan kam. Ot yasovchi affikslar kam miqdorda bo'lsa-da, o'zbek adabiy tili so'z yasalishi tizimidagi kabi [so'z yasalish asosi + yasovchi affiks] modelida ot turkumiga mansub yasalmalarni hosil qiladi. Shunga qaramay, ushbu yasovchi



vositalar funksional-semantik xususiyati, ishlatilish doirasi, singarmonik va assimilyativ variantlarining ko'pligi bilan adabiy tildan tafovut qiladi.

Xorazm shevalarida shaxs oti yasovchilari kishilarni turli jihatdan tavsiflovchi otlarni yasashga xizmat qiladi. Bunday yasovchilar, asosan, *kasb-kor*, *mashg'ulot egasi* ma'noli yasalmalarni hosil qiladi. Masalan, *-chi/-chì*, *-paz/-pāsh*, *-kash/-kāsh* affikslari orqali *āshūlāchi*, *qoshīqchì*, *dūkanchi*, *ashpaz*, *pūdrātchi*, *pātentchi*, *kāmerāchi* kabi ko'plab otlar yasaladi.

-chì/-chi affiksi bilan ot yasalishi. Xorazm shevalarida shaxs otlarining yasalishida *-chì/-chi* affiksi eng faol affiks hisoblanadi. Umuman, o'zbek tili va uning shevalarida *-chì/-chi* affiksi mahsuldor shaxs oti yasovchisi sifatida baholanadi. A.G'ulomov *-chi* affiksining genezisi haqida quyidagi qarashni ilgari surgan: "Bu avvalo, *ch* tarzida bo'lib, so'ng *i* affiksi qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan"¹. Tatar tilshunosi F.Ganiyev esa bu affiksning kelib chiqishini *-chìq* (*-chik*), *-sa* (*-se*) affikslari bilan, shuningdek, xitoy-koreys tillarida *odam* ma'nosida qo'llanadigan *-sa* so'zi bilan ham bog'laydi².

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklariga murojaat qilsak, bu affiksning shaxs oti yasashda qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: *tarig'chi* (dehqon), *sawchi* (ovchi), *salchi* (oshpaz).³

Hozirgi kunda *-chi* affiksining asosiy ma'nosi muayyan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'noli otlarni hosil qilishdan iboratdir⁴. Bu affiks asl turkiy so'zlarga ham, o'zlashgan so'zlarga ham qo'shilgan holda shaxs otlarini yasash uchun xizmat qiladi: *nasoschi*, *buldozerchi* kabilar. Ammo ba'zi manbalarda *-chi* affiksining sifat yasashda ham qo'llanishi qayd etiladi⁵.

Xorazm shevalarida ham *-chì/-chi* affiksi, asosan, insonni kasb-koriga ko'ra tavsiflovchi shaxs otlarini yasashda faol qo'llanadi. Bunday shaxs otlari semantikasida *kasb-kor*, *mashg'ulot* semasi ishtirok etadi. Shunga ko'ra *-chì/-chi* affiksi bilan yasalgan shaxs otlari asos qismdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq holda "*muayyan kasb-kor, mashg'ulot egasi*" ma'nosini anglatadi.

Xorazm shevalarida *-chì/-chi* affiksi bilan turli asoslardan shaxs otlari yasaladi. Sodda tub ot asoslardan yasalgan otlarning ko'pchiligi umumxalq tilida keng

¹ Gulomov A. Ўзбек тилида сўз ясаш усуллари ҳақида // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент: Фан, 1949. – Б.37-87.

² Ганиев Ф.А. Суффиксальное словообразование в современном татарском литературном языке. – Казань: Татар китап нашр., 1974. – С. 68.

³ Кошғарий М. Девону луғатит турк. III жилд. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1963. - Б.260; 445-446.

⁴ Қаранг: Қодирова И. Ўзбек тилидаги *-чи* аффиксининг полифункционаллиги // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. 2-сон. – Б.80-82.

⁵ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Тошкент: Фан, 1974. –Б.24-25; Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б.283.



qo'llaniladi: *qazuvchì* (ariq yoki yer qaziydigan shaxs), *topalanchì* (urush-janjal chiqaruvchi) kabilar.

-chì/-chi affiksi orqali yasama asoslardan ham xilma-xil ma'noli shaxs otlari hosil qilinadi. Masalan, *qìrqìmchì* (qo'y-echkilarning junini qirqadigan kishi) kabi.

Bu tipdagi yasama otlar ham muayyan kasb-hunar, turli faoliyat egalarini anglatadi: *uoraqchì*, *qazìqchì*, *sìnìqchì*.

-chì/-chi affiksi orqali mavhum ot asoslardan yasama otlar hosil qilinganda yasalmalar aniq tushunchalarni nomlashga xizmat qiladi. Masalan, *tärbiyä* – *tärbiyächì* kabi.

Xorazm shevalarida *-chì/-chi* affiksi orqali ko'plab chorvachilik leksikasiga oid shaxs otlari yasaladi. Bunday shaxs otlari ot va fe'l asoslardan hosil qilinadi: *sìn+chì* (chopadigan otlarning holatini sinab ko'radigan shaxs), *qoy+chì* (qo'ychibon), *yìlqì+chì* (otboqor; qush nomi), *mal+chì* (molning tilini yaxshi biladigan kishi, molfurush); *teri+chi* (terifurush) kabilar. Misol: *Karim malchì dìm malbazardìh yag'dayìn yaxshì bilädi* (Gurlan tumani).

Xorazm shevalariga mansub shaxs otlarining bir guruhi hozirgi kunda arxaiklashgan:

1) muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: *küllükchì* (mardikor), *aqìrachì* (ariqdan tashqariga chiqarilgan loyni yoyib turuvchi shaxs), *qoshchì* (omoch bilan yer haydovchi; yordamchi), *xarazchì* (ot-ulov yordamida tegirmon haydovchi), *zakatchì* (zakot solig'ini yig'uvchi), *qozaqchì* (bo'z to'quvchi), *salg'irtchì*, *küllükchì* (mardikor), *qazìqchì* (bozorga kelganlardan ulovini bog'laganlik uchun soliq yig'uvchi) va boshqalar;

2) dafn marosimi bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: *süyäkchì* (tobutkash; marhumni yuvishda qatnashadigan uning yaqinlari), *ìsqatchì* (marhumning tirikligida kiygan kiyimlarini, to'nini, bosh kiyimi va qimmatbaho narsalarini yaqinlariga tarqatib beruvchi kishi), *käpinchì* (marhumga kafan tikuvchi), *g'assalchì* (g'assol).

Keyingi davrlarda *-chì/-chi* affiksining shaxs otlarini yasash funksiyasi yanada kengayganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holat quyidagi yasama otlar misolida ham kuzatiladi: *yipäkchì/djipäkchì* (ipakfurush), *qahìltìrchì* (tunukasoz), *xatchì* (kotib, pochталon), *tog'aychì* (o'rmon qorovuli; o'rmon tilini yaxshi biladigan shaxs), *baltachì* (bolta yasovchi; bolta bilan ishlovchi), *nälchì* (ko'chat etishtiruvchi; taqa yasovchi); *nälökchì* (soliq yig'uvchi, soliq soluvchi), *altìnchì* (oltin savdosi bilan shug'ullanuvchi), *sìrg'achì* (sìrg'a, zirak yasovchi zargar), *qashìqchì* (yog'ochdan qoshiq yasovchi usta) kabilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xorazm shevalarida shaxs ma'nosini hosil qilishda, asosan, *-chì/-chi* affiksidan unumli foydalaniladi. Shu bois shaxs oti





yasovchilari ichida, adabiy tildagi kabi, eng faol yasovchi *-chi*/*-chi* affiksi hisoblanadi. Bu affiks turli asoslardan “shaxs” ma’noli otlarni yasay oladi.

